

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MINTAQAVIY BO'LIMI  
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA'MUN  
AKADEMIYASI  
AXBOROTNOMASI**

Axborotnomma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2025-6/2  
Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi  
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

**Xiva-2025**

<b>Атажонов Ж.А.</b> Қишлоқ хўжалик техникалари ишлаб чиқарувчи йирик саноат корхоналари ва кичик бизнес субъектларининг кооперация алоқаларини шакллантиришнинг айрим услубий масалалари	102
<b>Курбонов М.А.</b> Камерал солиқ текшируви учун электрон манбасининг шаклланиши, солиқ тизимидағи қўлланилаётган дастурий маҳсулотларнинг ахамияти	112
<b>Маматов А.А., Хуррамов А.Ф.</b> Миллий хўжаликни яшил иқтисодиётга ўтиш йўллари ва устуворликлари	115
<b>Машарипова М.Ў.</b> Аёллар тадбиркорлиги тараққиётига таъсир қилувчи омиллар ва ўзбекистонда соҳани ривожлантиришнинг айрим чора-тадбирлари	119
<b>Тиловмуродов Д.Ф.</b> Вклад приключенческого туризма в туристический рынок Центральной Азии	126
<b>Толипов А.Қ.</b> Савдо-саноат палатаси томонидан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни инфратузилмавий қўллаб-кувватлашнинг устувор йўналишлари	128
<b>Усмонов М.М.</b> Повышение конкурентоспособности промышленных предприятий	132
<b>Хасанов С.Х.</b> Шахснинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш стратегиясини ишлаб чиқиш	135
<b>Холбутаева Ш.А.</b> Пути совершенствования механизмов обслуживания железнодорожного транспорта	138
<b>PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<b>Abdirapova Z.A.</b> “Mahbub ul-qulub” asarini darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘qitishning ahamiyati	143
<b>Abdug‘aniyeva X.S.</b> Ernest Xemingueyning abadiy filosofiyasi va uning asarlarini chet tili o‘qitishda qo’llashning pedagogik ahamiyati	145
<b>Akbarova S.A.</b> The challenge of learning idiomatic expressions in english and strategies for understanding them	147
<b>Allanyazov M.B.</b> Using modern methods of teaching foreign languages	150
<b>Axmedova Sh.M.</b> Ingliz tilini o‘qitishda autentik materiallarning ahamiyati	152
<b>Axrorova M.N.</b> The influence of extensive reading and book clubs on creative writing in EFL classrooms	155
<b>Agzamkhodjaeva S.A., Rita S. Djohan</b> Current issues in the implementation of inclusive education in the modern education system in presett	158
<b>Babajanova K.I.</b> Enhancing pedagogical competence in modern pedagogy: a crucial imperative for 21st-century education	160
<b>Begmuradov J.</b> Boshlang`ich sinf o`quvchilarining audio ertaklardan foydalanishining afzalliliklari va tinglab tushunish ko`nikmalarining ahamiyati	163
<b>Berdiev S.S.</b> Lexical and Semantic Functions of Pedagogical Terms and Interfixes in “Ta’limning Metodikasi va Psixologiyasi”	166
<b>Bo’ribayeva Sh.A.</b> Nemis tilini o‘qitishni o’rganish (DLL) dasturining dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati	171
<b>Chutboyeva M.N., Abdumannotov E.A.</b> Xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy qadriyatlarni shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	173
<b>Ermanbetova Sh.B., Qo‘ymurodova G.M.</b> Adabiyot darslarida ifodali o‘qishning talab va me’yorlari	176
<b>Ganiyeva M.Sh., Mirzayeva Z.U., Xankeldiyeva X.Q.</b> Gospital pediatriya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	178
<b>Imanova G.L.</b> Stilistik vositalarning ingliz tilini o‘qitish metodikasidagi ahamiyati	181
<b>Isakov Sh.M.</b> Belbog‘li kurash mashg‘ulotlarini tashkil etishda yangi ta’lim metodlarining ahamiyati	184
<b>Isomova N.B.</b> Ingliz tili grammatisini o‘qitishda induktiv va deduktiv yondashuvlarning taqqosiy tahlili hamda ularning didaktik ahamiyati	186
<b>Israelova D.</b> Madaniyatga oid materiallarning chet tilini o‘rgatishdagi o’rni va ahamiyati	189
<b>Jabborova G.F.</b> Til o‘rganishda xavotir va qo’rquv tadqiqoti	192
<b>Jo’rayeva Z.K.</b> The role of peer feedback in enhancing argumentative writing skills among EFL students	194
<b>Juraboyeva G.</b> Different issues on assessing students and possible solutions	197

pedagogical), we see how these disciplines can be combined to form new, holistic approaches to teaching that take into account the learner's psychological, emotional, and cognitive needs.

**REFERENCES:**

1. Bauer, L. (2001). *Morphological productivity*. Cambridge University Press.
2. Berdiev Sukhrob Sobirovich,. (2025). "The role of interfixes in language development and education processes". Journal of Universal Science Research, 3(4), 420–423. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/83843>
3. Bod, R., Hay, J., & Jannedy, S. (2003). *Understanding linguistics: The science of language*. Blackwell Publishing.
4. Carter, R., & McCarthy, M. (2006). *Cambridge grammar of English: A comprehensive guide*. Cambridge University Press.
5. Crystal, D. (2008). *A dictionary of linguistics and phonetics*. Wiley-Blackwell.
6. Givón, T. (2001). *Syntax: A functional-typological introduction*. John Benjamins Publishing.

**UO'K 37.02****NEMIS TILINI O'QITISHNI O'RGANISH (DLL) DASTURINING DARS  
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI****Sh.A.Bo'ribayeva, katta o'qituvchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda dunyoning bir necha mamlakatlarida DLL-malaka oshirish va qo'shimcha ta'lif dasturini tadbiq qilish, dastur asosida nemis tili o'qituvchilarini tayyorlash, professor va o'qituvchilar malakasini oshirish, hamda ularga ta'lif dasturlari taklif qilish va DLL-majmuslarining nemis tili darslarini professional pedagog sifatida tashkillashtirishda ahamiyati hususida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchilik kasbi, DLL-malaka oshirish va qo'shimcha ta'lif dasturini, DLL-majmualar, kasbiy kompetensiya, samarali dars mashq'ulotlari.

**Аннотация.** В данной статье подчеркивается важность внедрения DLL-программ повышения квалификации и дополнительного образования, подготовки учителей немецкого языка, повышения квалификации, а также предоставления им образовательных программ и DLL-комплексов для организации уроков немецкого языка.

**Ключевые слова;** преподавательская профессия, DLL-программы повышения квалификации и дополнительного образования, DLL-комплексы, профессиональные компетенции, эффективные занятия

**Abstract.** This article highlights the importance of DLL-skills development and further education in several countries of the world today, training German teachers according to the program, improving professors and teachers' skills and offering them educational programs and organizing German classes of DLL-complexes as professional educators.

**Keywords:** teaching profession, DLL-advanced training and additional education programs, DLL-complexes, professional competencies, effective classes

**Kirish.** Bugungi glooballashuv davrida chet tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yoshlarimiz o'rtaida ustivor vazifalardan biriga aylanmoqda. Shubhasiz bunday vazifalarni amalga oshirishda cheti tili o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklanadi. Chet tili o'qituvchisi darslarini davr talabiga monand tashkillashtirishda avvalombor kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi darkor.“Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik sifatining mezoni - bu o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi bo'lib, u jamiyat va davlat tomonidan XXI-asr mutaxassisiga qo'yiladigan barcha talablarni to'liq aks ettiradi.” Kompetentlik har bir kasb egasi uchun juda muhim hisoblanib, chet tili o'qituvchilari ham bundan mustasno emas. Chet tili o'qituvchisi chet tilini mukammal bilishi, kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma hamda malakaga ega bo'lishi kerak.

“O'qitish-bu o'qituvchilarning shaxsiyati, ularning hayotiy va kasbiy tajribalari, bilim va ko'nikmalari, shuningdek, ma'lum xarakter xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan faoliyat” [1] “O'qituvchilik kasbini egallagan har bir inson, avvalo, o'qituvchi shaxsiga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etishi, shuningdek, o'qituvchining ruhiy pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni atroflicha o'zlashtirgan bo'lishi: tanlangan ixtisoslik yuzasidan kerakii doirada pedagogik

mahorat, texnika, takt, ziyraklik, kuzatuvchanlik, bilimlarni bolalarga yetkaza olish qobiliyatiga ega bo'lmog'i juda muhim." Darhaqiqat yuqoridaq fazilatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi, o'quv jarayonini samaradorligini oshirishga muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining yuksak kompetentlikga erishishida esa DLL-dasturi doirasida tavsiya qilinadigan DLL-majmualarini o'rni beqiyosdir.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda dars mashg'ulotlarini samarali tashkillashtirish professor va o'qituvchilardan juda katta bilim, tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi. Shu bois ular o'z ustida timmay islanish olib borishlari va malaka oshirish treninglarida muntazam ishtirot etishlari juda muhimdir. Bu borada Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgan Gyote instituti orqali olib borilayotgan amaliy ishlarni misol sifatida aytib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, Gyote instituti „Nemis tilini o'qitishni o'rganish“ (DLL- Deutsch lehren lernen) dasturi asosida ko'pgina ijobjiy ishlarni amalga oshirib kelmoqda. „Nemis tilini o'qitishni o'rganish (DLL) Gyote- Institutining ta'lim, malaka oshirish va qo'shimcha ta'lim dasturidir. Mazkur dastur nemis tili chet tili (DaF) fani sifatiga tegishli bo'lib, u bu fanning aktual ilmiy holatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan va o'qituvchi malakasini oshirishda innovatsion didaktik yondashuvni, yani harakat tadtqiqotini (Aktionsforschung) o'z ichiga oladi.“ Ushbu dastur asosida Gyote-instituti respublikamizdagi bir necha ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatib, bir qator DLL-majmualarini o'quv jarayoniga tatbiq qilishga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari nemis tili o'qituvchilar malakasini oshirish kurslarining seminar-treninglari ham asosan DLL-majmualari asosida olib borilmoqda. Bunday seminar-treninglar nemis tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda o'quv jarayonida til o'rganuvchilarning faol ishtirot etishini ta'minlaydi. "O'quvchilarning faolligi darsning tamoyili hisoblanib, unga ko'ra o'quvchilar darsda va o'quv jarayonida imkon qadar faol ishtirot etishlari kerak" "Dars jarayonini biz qanchalik ko'p o'quvchilar faoliyatiga mo'ljallab tashkillashtirsak, o'quv jarayoni shunchalik darajada muvaffaqiyatlari va esda qolarli bo'ladi." Bunday muvaffaqiyatlarga erishishda ham DLL- majmualar o'qituvchilarga yaqindan yordam beradi.

DLL- majmualari nemis tili darslarini professional pedagog sifatida tashkillashtirishda muhim omil hisoblanib, ularini o'quv jarayoniga tatbiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Lehrkompetenz und Unterrichtsgestaltung (2012)
2. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch? (2013)
3. Deutsch als fremde Sprache (2014)
4. Aufgaben, Übungen, Interaktion (2014)
5. Lernmaterialien und Medien (2014)
6. Curriculare Vorgaben und Unterrichtsplanung (2013)

#### **DLL dasturi quyidagi oltita asosiy mavzularini taklif qiladi:**

- 1- majmua: O'qitish kompetensiyasi va dars tuzilishi
- 2- majmua: Nemis tilini chet tili sifatida qanday o'rganiladi?
- 3- majmua: Nemis tili chet tili sifatida
- 4- majmua: Vazifalar, mashqlar va o'zaro aloqa
- 5 - majmua: O'qitish va o'rganish vositalari
- 6 - majmua: O'quv rejasiga qo'yiladigan talablar va darsni rajalashtirish

Mazkur DLL-majmualari bazaviy qo'llanma hisoblanib, nemis tili darslarini samarali tashkillashtirishda muhim o'quv materiallari qatoridan o'r'in olib kelmoqda.

**DLL** dasturi bugungi kunda zamонави о'кув mashg'ulotlarini samarali tashkil qilishda va o'qituvchilar malakasini oshirishda asosiy yordamchi vositasida xizmat qiladi va ko'pgina olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida bu dasturning ijobjiy tomonlari xususida batafsil to'xtalib o'tganlar. Bunday ilmiy ishlar qatoriga Katrin Niewalda ning "DLL-Fortbildungen als Vorbereitung für professionelle Lerngemeinschaften", Blaženka Abramović ning "Ein Beitrag zum Forschenden Lernen von Tutorinnen und Tutoren in Fortbildungsmaßnahmen am Beispiel des Programms *Deutsch Lehren Lernen*" va Michael Legutke, Sabine Rotbergning *Deutsch Lehren Lernen (DLL)* – das weltweite Fort- und Weiterbildungsangebot des Goethe-Instituts" nomli maqolalarini misol tariqasida keltirib o'tish mumkin.

“DLL-malaka oshirish va qo'shimcha ta'lim dasturi Gyote institutning boshqa malaka oshirish dasturlari singari o'qituvchilarni professional ta'lim jamoalarida (PLG-Professionelle Lerngemeinschaften) ishtirok etishga tayyorlaydi. Professional ta'lim jamoalarini o'qituvchilarga malaka oshirishda olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga imkoniyat beradi. PLG da ishtirok etish o'qituvchilarni o'z bilim va kompetensiyalarining qo'llay olishlari bilan birga ularni yanada rivojlantiradi.”

Bu dastur orqali o'qituvchilar yoki kelgusida pedagogika sohasida faoliyat yurituvchilar nafaqat nazariy bilimga ega bo'ladilar, balki ularda olingen bilimlarni amaliyotda qo'llashda ham katta imkoniyat tug'iladi. Har bir DLL-majmuasini yakunlagan o'qituvchi yoki bo'lg'uvchi pedagog loyiha ishini amalga oshiradi. Mazkur loyiha PEP (Praxiserkundungsprojekt-Amaliy izlanish loyihasi) deb nomlanib, DLL-majmuasidan olingen nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga zamin yaratuvchi loyihadir. ”Amaliy izlanish loyihasi professional o'qituvchi bo'lish uchun eng muhim vositadir” Bu haqda K.Nivalda quyidagi fikrni bayon etadi: “DLL dasturining konsepsiysi reflektiv tajribaviy o'rganishga asoslangan”

“Amaliy izlanish loyihasini o'tkazish ishtirokchilarga o'z darslarida yangi narsalarni sinab ko'rishga, eskisini qayta ko'rib chiqishga, yangi yondashuvni qo'llash yoki oldingi yondashuvni moslashtirish orqali muammoli narsalarni optimallashtirishga imkon beradi.”

Mazkur loyiha til o'rganuvchilarining qiziqishi va motivasiyasini oshishiga, darsda turli ijtimoiy shakllardan, tarqatma hamda ko'rgazmali qo'rollardan unumli foydalanish imkonini beradigan kichik tadqiqot hisoblanadi va bu DLL-majmualari orqali amalga oshiriladi.

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, DLL-malaka oshirish va qo'shimcha ta'lim dasturi nemis tili o'qituvchilarini professional pedagog sifatida rivojlanishida va DLL-majmualarini o'quv jarayoniga tatbiq qilinishi esa dars samaradolligini ortishiga hamda talabalarni qiziqishi, motivasiysi va ularning dars mashg'ulotlarida faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Aslanova D.X., Salomov F.F., Halikov Y.M. Kasbiy kompetentlik. O'quv qo'llanma. Samarqand: Iqtisodiyot, 2020
2. Mavlonova R., Abdurahimova D. Pedagogik mahorat.O'quv qo'llanma.Toshkent 2009.
3. Barkowski H., Grommes P., Lex B. u.a. Deutsch als fremde Sprache. Klett-Langenscheidt. München. 2014
4. Ende K., Grotjan R., Kleppin K., Mohr I. Curriculare Vorgaben und Unterrichtsplanung. Ernst Klett Sprachen Stuttgart-2013
5. Funk H., Kuhn Ch., Skiba D., u.a. Aufgaben, Übungen, Interaktion Klett-Langenscheidt. München-2014.
6. Schart M., Legutke M. Lehrkompetenz und Unterrichtsgestaltung. Klett-Langenscheidt. München, 2012
7. <https://www.degruyter.com/document/doi/10.1515/infodaf-2018-0082/html>
8. <https://www.goethe.de/ins/uz/uz/spr/eng/dll.html>
9. <https://www.degruyter.com/document/doi/10.1515/infodaf-2018-0082/html?lang=de>
10. file:///C:/Users/User/Downloads/Kontexte+2023\_1\_Niewalda%20(1).pdf

**UO'K 37.02****XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION TEKNOLOGIYALARI**

*M.N.Chutboyeva, magistrant, O'zbek-Finlandiya pedagogika instituti, Toshkent  
E.A.Abdumannotov, dots., PhD, O'zbek-Finlandiya pedagogika instituti, Toshkent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining turli janrlarini innovatsion texnologiyalar yordamida o'rgatish usullari, ularning samaradorligi va milliy tarbiya jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Xalq og'zaki ijodi, milliy qadriyat, doston, maqol, matal, topishmoq, tez aytish, ertak, innovatsion texnologiya, VR, AR, Al

**Аннотация.** Шот анализирует методы обучения различным жанрам народных устных существ с использованием инновационных технологий, их эффективности и важности в национальном образовательном процессе.

**Ключевые слова:** народное устное творчество, национальные ценности, дастан, пословица, поговорка, загадка, скороговорка, сказка, инновационные технологии, VR, AR, ИИ.